

## MANBALARNI SAQLANISH O'RINLARI

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistratura bitiruvchisi  
Ulkanazarova Nafisa*

### KIRISH:

Hozirgi kunda ilmiy va amaliy tadqiqotlar jarayonida foydalanilgan manbalarni to'g'ri saqlash va ularga kirishni ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Manbalarni saqlash o'rirlari (arxivlar, kutubxonalar, raqamli platformalar) nafaqat axborotni uzoq muddat davomida saqlash, balki uning qulay foydalanilishini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, an'anaviy saqlash usullari, masalan, qog'ozli arxivlar ham ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu tezisda manbalarni saqlash o'rirlari, ularning turlari va afzalliklari muhokama qilinadi.

### NAZARIY ASOS:

Manbalar - bu bilim va axborotning asosi. Ular ilmiy, madaniy, tarixiy va iqtisodiy sohalarda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumotlar saqlanishi muhimligini ifodalashda, O'zbekistonning qadimiy ilmiy merosini saqlab kelayotgan arxivlar va kutubxonalar, jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining O'zbek tili va adabiyoti instituti fondi misolida tushuntirish mumkin. Ushbu institutda saqlanayotgan qo'lyozma asarlar va tarixiy hujjatlar milliy merosimizning qadrli manbalari hisoblanadi. O'zbekiston kabi boy ilmiy va madaniy tarixga ega mamlakatlar uchun manbalarni saqlash katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar va madaniy asarlar asrlar davomida qog'ozli saqlash tizimlari orqali himoyalangan. Ayniqsa, O'rta asrlarda yaratilgan ilmiy asarlar (Al-Beruniy, Ibn Sino kabi olimlarning asarlari) milliy merosning ajralmas qismi bo'lib, ular qog'oz shaklida saqlangan.

Manbalarni saqlashning ikki asosiy shakli – qog'ozli va raqamli saqlash tizimlari – har biri o'zining afzalliklari va cheklovlariga ega. An'anaviy qog'ozli manbalar ko'pincha haqiqiy fizik obyekt sifatida o'z qadrini yo'qotmaydi, ularni tiklash, konservatsiya qilish va saqlash ilmiy kutubxonalar va arxivlar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekistonning Fanlar akademiyasi va Milliy kutubxona fondlarida qog'ozli manbalarni saqlash va ularga mikroiqlim sharoitlarini yaratish tizimi mavjud. Raqamli saqlash texnologiyalarining rivojiga keladigan bo'lsak, so'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalar ilmiy manbalarni saqlash usulida katta o'zgarishlar kiritdi. Raqamli arxivlar va bulutli texnologiyalar axborot va ilmiy manbalarni saqlashda yangi imkoniyatlar yaratdi. Elektron saqlash texnologiyalari orqali hujjatlar, qo'lyozmalar va boshqa ilmiy asarlarni skanerlash va





raqamlashtirish, ularni kengroq auditoriyaga taqdim etish mumkin bo'ldi. Biroq, qog'ozli hujjatlar yillar davomida eskiradi va atrof-muhit sharoitlariga sezgir bo'lishi sababli ularni saqlash qiyinlashadi. Shu sababli raqamli saqlash texnologiyalari muhim yechim bo'lib, ular ma'lumotlarni uzoq muddat xavfsiz saqlash va tezkor kirish imkoniyatini ta'minlaydi. Raqamlashtirilgan manbalar bulutli texnologiyalar orqali zaxiralanishi va global miqyosda ulashilishi mumkin. Manbalarni saqlashda nazariy asosni tushunish orqali qog'oz va raqamli formatlarning birgalikda q'llanilishi optimal natijalar beradi va ilmiy merosni xavfsiz saqlashning uzoq muddatli strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Manbalarni saqlash uchun raqamli va an'anaviy texnologiyalarning uyg'unligi muhimdir. Elektron arxivlar va bulutli saqlash texnologiyalari bugungi kunda keng q'llanilmoxda. Bunga misol qilib O'zbekistondagi Milliy kutubxonanining raqamli katalog tizimini keltirish mumkin. Shuningdek, qog'ozli manbalar arxivlar va maxsus omborlarda saqlanadi, ularning mikroiqlimi va xavfsizligi doimiy nazoratda bo'lishi kerak.

### NATIJALAR:

Tadqiqot natijalariga ko'ra, manbalarni saqlashning raqamli va an'anaviy shakllarini uyg'unlashgan holda qo'llash eng samarali usul hisoblanadi. Har ikkala usulning afzalliklari va chekllovleri hisobga olingan holda, ma'lumotlarni uzoq muddat saqlashda turli yondashuvlar ishlatalmoqda. Quyidagi asosiy natijalar qayd etildi: Qog'ozli manbalar saqlashining afzalliklari qog'ozli manbalar, ayniqsa tarixiy va ilmiy jihatdan qimmatli qo'lyozmalar, o'zining asl fizik shaklida alohida qiymatga ega. Ular original manba sifatida ilmiy tadqiqotlar uchun kerakli hujjatlardir. Ularning ko'pgina yillar davomida saqlanib kelishi milliy madaniyat va merosning bir qismi sifatida katta ahamiyatga ega. Chekllovlariga to'xtaladigan bo'lsak, qog'oz hujjatlar va qo'lyozmalar vaqt o'tishi bilan eskiradi, fizik shikastlanish va yo'qolish xavfi mavjud. Ularni saqlashda maxsus mikroiqlim sharoitlarini ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ularning foydalanimishi cheklangan bo'lib, bu ilmiy ishlarda osonlik bilan kirish imkoniyatini kamaytiradi.

Raqamli saqlashning afzalliklari raqamlashtirish orqali manbalarning keng ommaga ochiqligi ta'minlanadi. Elektron arxivlar va kataloglar orqali foydalauvchilar qog'ozli manbalarni yo'qotish xavfisiz raqamli nusxalaridan foydalanimishi mumkin. Bulutli texnologiyalar va raqamli zaxiralash ma'lumotlarni uzoq muddat davomida xavfsiz saqlash imkonini beradi va ularni osongina zaxiralash, ko'paytirish, global darajada almashish osonlashadi. Raqamli manbalarni saqlash texnologiyalari ham o'ziga xos cheklolvarga ega. Elektron formatlar vaqt o'tishi bilan texnologik yangilanishlarga muhtoj, va eski formatlar o'qish yoki ularga kirish imkonsiz bo'lib qolishi mumkin. Shuningdek, texnik



nosozliklar va kiberxavfsizlik muammolari raqamli manbalarning yo'qolishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

#### **XULOSA:**

Manbalarni saqlash masalasi jamiyatning ilmiy va madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazish uchun juda muhim. Bugungi kunda qog'ozli va raqamli saqlash usullari uyg'unlashgan holda ishlatalishi manbalarning uzoq muddat xavfsiz saqlanishini ta'minlaydi. Ushbu tezisda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikkala usul ham o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega, biroq ularni birgalikda qo'llash eng samarali va optimal yondashuv hisoblanadi.

